



UDK:8.81.81-2.81-23

Zulxumor ACHILOVA,  
O‘zDJTU katta o‘qituvchisi  
E-mail: achilova.zulxumor@mail.ru  
Tel: 93-571 31 70

SamDCHTI profesori, DSc A.Shamaxmudova taqrizi asosida

"EXPRESSION OF THE CONCEPT OF 'AGE' IN PAREMIOLOGICAL UNITS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF SPANISH AND UZBEK NATIONAL-SPECIFIC FEATURES"

Annotation

This article examines the linguistic and cultural representation of the concept of "age" in paremio logical units of the Spanish and Uzbek languages. The study highlights both commonalities and distinctions in the use of fixed expressions related to edad in Spanish and its equivalent in Uzbek. It also explores the lexical and semantic aspects of these expressions, considering their cognitive and cultural significance in shaping perceptions of age in both linguistic traditions.

**Key words:** Age, edad, Spanish language, Uzbek language, lexical features, semantic analysis, concept, cognition, perception, memory, thinking, speech, personality traits, cultural perspectives, behavior, reasoning.

"НАЦИОНАЛЬНО-СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПРИЯТИЯ И ВЫРАЖЕНИЯ КОНЦЕПТА «ВОЗРАСТ» В ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ ИСПАНСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ"

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию национально-специфических особенностей выражения концепта «возраст» в паремииологических единицах испанского и узбекского языков. В работе рассматриваются сходства и различия в употреблении устойчивых выражений, содержащих слово edad в испанском языке и его эквивалент в узбекском языке. Также проводится анализ лексико-семантических характеристик данных выражений, раскрывается их когнитивная и культурная значимость в формировании представлений о возрасте в обоих языках.

**Ключевые слова:** Возраст, edad, испанский язык, узбекский язык, лексические особенности, семантический анализ, концепт, когниция, восприятие, память, мышление, речь, личностные характеристики, культурные взгляды, поведение, рассуждение.

"PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA "YOSH" TUSHUNCHASINING ISPAN VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MILLIY XUSUSIYATLARI"

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada paremiologik birliklarda "yosh" tushunchasining ispan va o‘zbek tillarida ifodalanihiga xos milliy jihatlar tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida ispan va o‘zbek tillari tizimidagi edad leksemasi ishtirok etgan barqaror iboralar tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli stilistik xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, har ikki tilga oid muqobil barqaror birikmalarning leksik-semantik xususiyatlari o‘rganilib, ularning lingvistik va madaniy xususiyatlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Yosh, edad, ispan va o‘zbek tillari, leksik-semantik xususiyatlar, konsept, kognitiv jarayon, idrok, xotira, tafakkur, nutq, shaxsiy xususiyatlar, qiziqish, mulohaza, dunyoqarash, xulq-atvor.

**Kirish.** Mazkur ilmiy tadqiqot ispan tilidagi edad konseptining nominativ xususiyatlarini, uning semantik tarkibini, tarkibiy qismlarining o‘zaro tizimli aloqalarini hamda ushbu konseptning til tizimidagi o‘rnini har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, ispan va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchi nutq egalari tomonidan inson yosh davrlarining idrok etilishi, bu jarayon bilan bog‘liq lingvistik ong stereotiplari va madaniy-ma‘naviy kodlarning shakllanishi ilmiy-nazariy asosda o‘rganiladi.

Ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan, edad konsepti inson hayoti davomida kechadigan turli yosh bosqichlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda jamiyatdagi qabul qilingan qarashlar orqali shakllangan tasavvurlarni aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik hisoblanadi. Yosh—individning jismoniy, psixologik va xulq-atvor jihatdan rivojlanish bosqichlarini belgilovchi asosiy kategoriya bo‘lib, uning shakllanishi kognitiv jarayonlar, jumladan, idrok, xotira, tafakkur, nutq, shaxsiy xususiyatlar, qiziqishlar, mulohazalar, dunyoqarash hamda xulq-atvor motivlarida o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, yosh tushunchasi inson ongining evolyutsion shakllanishida, bolalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishida, shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik yetukligini belgilashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslik va konseptologiya nuqtayi nazaridan, ispan tilidagi edad konsepti vaqt va rivojlanish tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning semantik maydoni turli yosh bosqichlari va ularning jamiyatdagi

aks sadosi bilan kengayib boradi. O‘zbek tilidagi "yosh" leksemasi esa inson yoki predmet rivojlanishining turli bosqichlarini, jumladan, o‘shish, ulg‘ayish, yashash davomiyligi, tarixiy davrlar, asrlar, yillar, oylar, soatlar va hatto daqiqalar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalash xususiyatiga ega. Bu ikki konsept o‘zaro ma‘no jihatidan bog‘liq bo‘lsa-da, har ikkala tilning lingvomadaniy xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy-huquqiy meyorlari sababli ularning semantik chegaralari o‘ziga xoslik kasb etadi. Ispan va o‘zbek tillarining leksikografik manbalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida edad konsepti va "yosh" leksemasining semantik talqinida ayrim tafovutlar mavjudligi aniqlanadi. Ushbu tafovutlar har ikkala xalqning madaniy dunyoqarashi, falsafiy yondashuvi hamda etnolingvistik xususiyatlari bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lishi mumkin. Shu bois, tadqiqot davomida bu konseptlarning paremiologik birliklardagi ifodalanish xususiyatlari keng qamrovli tahlil qilinadi.

Bizning ilmiy izlanishimiz avvalgi tadqiqotlardan farqli o‘laroq, "Edad" konseptining ispan va o‘zbek tillaridagi leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi:

Ispan va o‘zbek tillarida "Edad" konseptini ifodalovchi ko‘p darajali birliklarning (leksik, frazeologik va semantik-funksional) semantik tahlili

Ikkala til doirasida "Edad" konseptiga xos bo‘lgan konseptual xususiyatlarning aniqlanishi

Mazkur xususiyatlar asosida asosli shakl tuzilishining belgilab olinishi

Bu yondashuv konseptual tahlil va qiyosiy lingvistik asosida amalga oshiriladi va natijada ispan hamda o'zbek tillarida "Edad" konseptining umumiy hamda farqli jihatlarini tizimli ravishda ochib beriladi. Ushbu tadqiqot yangi ilmiy yondashuv taklif qilishi va mavjud leksik-semantik modellarni boyitishi bilan ahamiyatlidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ispan va o'zbek tillarida "Edad" konseptining leksik-semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – "Edad" konseptining lingvistik va konseptual asoslarini aniqlash uchun ilmiy manbalarni o'rganish va ularni umumlashirish.

Chog'ishtirma tahlil – ispan va o'zbek tillarida "Edad" konsepti bilan bog'liq til birliklarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash.

Leksik va stilistik tahlil – "Edad" konseptining turli kontekstlardagi ishlatilishiga, ayniqsa, barqaror iboralardagi stilistik xususiyatlariga e'tibor qaratish.

Ushbu tadqiqotda ispan va o'zbek tillarida "Edad" konsepti bilan bog'liq ko'chma ma'nolar va barqaror iboralar o'rganildi. Ikki tilda mazkur konseptning qo'llanilishi va unga taalluqli muqobil barqaror birliklarning semantik-funksional jihatlarini tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ispan va o'zbek tillarida "Edad" konsepti bilan bog'liq tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida milliy qadriyatlarining ta'siri o'rganildi. Bunda mazkur konseptning har ikkala tilda ifodalanishi orqali leksik, frazeologik va semantik-funksional birliklarning xususiyatlari tahlil qilinib, asosiy konseptual o'ziga xosliklar aniqlab berildi.

**Tahlil va natijalar.** Semantik tahlil jarayonida va til birliklarini aktualashirish misollarida ispan va o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan "Edad" konseptining milliy o'ziga xos idrok etilish xususiyatlari aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tadqiqot davomida "Edad" konsepti bilan bog'liq leksik va frazeologik birliklarning semantik tahlili amalga oshirildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, til birliklarining semantik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ispan va o'zbek madaniyatida shaxsning yosh bilan bog'liq holatlarini konseptiyalashning o'ziga xos jihatlar mavjud. Ushbu jarayonda har ikkala tildagi yosh konseptiga oid tasavvurlar va ularning lingvistik ifodalanishi shakllari aniqlab berildi.

Olingan natijalar asosida ispan va o'zbek tillarida yosh konseptining milliy-madaniy jihatdan shakllanishi, semantik funksional o'zgarishlari hamda barqaror iboralar orqali qanday ifodalanishi ilmiy asosda yoritildi. Ushbu yondashuv ikki til va madaniyat oralig'ida konseptual tafovutlar va umumiyliklarni aniqlashga yordam berdi.

"Edad" Konsepti: Semantik qamrovi va ilmiy talqini

Lingvistik va konseptual tahlil nuqtayi nazaridan "Edad" konsepti odatda "ma'lum kuch va xususiyatlarga ega hayot davri" sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha "inson hayotining muayyan bosqichi" bilan uzviy bog'liq bo'lib, u inson taraqqiyotining turli pog'onalarini tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" p. 51]

Biroq, "Edad" konsepti faqatgina biologik yosh bilan cheklanmaydi. U turli kontekstlarda quyidagi ma'nolarni ham o'z ichiga oladi:

Hayot bosqichi va biologik rivojlanish jarayoni – insonning yoshga bog'liq tarzda o'zgarishi, turli bosqichlardagi ruhiy va jismoniy xususiyatlarini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Tarixiy va madaniy davr – jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlarini ifodalovchi tushuncha sifatida qo'llanadi.

Aniq vaqt oralig'i va chegara – vaqt tushunchasining chegaralangan davr yoki bosqich sifatida idrok etilishini anglatadi.

Keksalik va qarilik – inson hayotining so'nggi bosqichini tavsiflashda foydalaniladi.

Geologik va tabiiy jarayonlarning vaqt o'lchovi – yer qobig'ining shakllanish bosqichlarini ifodalashda qo'llaniladigan ilmiy tushuncha.

Shu nuqtayi nazardan, "Edad" konsepti turli fan tarmoqlarida, jumladan, tilshunoslik, tarix, sotsiologiya, falsafa va tabiiy fanlarda keng qo'llaniladigan ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Uning semantik doirasini chuqur o'rganish orqali turli madaniyatlarda vaqt, yosh va tarixiy bosqichlarni idrok etish xususiyatlari haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" №5 (120)-1 2024.p. 51]

"Edad" Konsepti: Sinonimik qator va ma'no noaniqligi

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan "Edad" konsepti o'zining ko'p ma'nolilik xususiyati bilan ajralib turadi. Uning turli semantik qatlamlarga ega bo'lishi bir vaqtning o'zida bir necha sinonimik qator tarkibiga kirishiga imkon yaratadi. Bu konsept semantik va stilistik jihatdan turlicha sinonimlarni o'z ichiga oladi:

"Birovning tug'ilishidan yoki biror narsaning paydo bo'lishidan, o'sib unishidan buyon o'tgan vaqt" ma'nosida "Edad" konsepti quyidagi sinonimlarga ega: [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" №5 (120)-1 2024.p. 51]

año, años (yil, yillar) – umumiy vaqt o'lchovi sifatida qo'llaniladi.

enero (yanvar), invierno (qish) – keksa insonlarga nisbatan qo'llaniladi.

primavera (bahor) – yoshlarga nisbatan ishlatiladigan metaforik sinonim.

"Muayyan kuch darajasi bilan ajralib turadigan hayot bosqichi" ma'nosida quyidagi sinonimik birliklar mavjud:

infancia (bolalik) – hayotning dastlabki bosqichi.

juventud (yoshlik) – insonning faol va energiyaga to'la davri.

vejez (keksalik) – qarilik yoshi bilan bog'liq bosqich.

"Hayot davri" yoki "umrning davomiyligi" tushunchasi quyidagi sinonimlarda namoyon bo'ladi:

periodo (davr) – aniq chegaralangan vaqt oralig'ini bildiradi.

generación (avlod) – tarixiy yoki ijtimoiy jihatdan bir vaqtning o'zida yashagan insonlar guruhi.

"Keksalik, qarilik" ma'nosida ishlatiladigan sinonimik birliklar:

ancianidad (juda qarilik, antiklik, qadimiylik) – insonning hayotining so'nggi bosqichini anglatadi.

feliz edad (baxtli yosh) – keksalikning ijobiy talqini.

tercera edad (uchinchi yosh) – odatda nafaqadagi insonlarning hayot bosqichini tavsiflashda ishlatiladi.

edad del planeta (sayyora yoshi) – geologik nuqtayi nazardan vaqt tushunchasi bilan bog'liq.

otoño de la vida (hayotning kuzi), invierno de la vida (hayotning qishi) – metaforik ifodalar bo'lib, inson hayotining keksalik davrini tasvirlaydi.

fase final de la vida (hayotning oxirgi bosqichi) – hayot siklining yakuniy bosqichi

Yuqorida keltirilgan sinonimlar shuni ko'rsatdiki, "Edad" konsepti o'zining integrallik xususiyati bilan xarakterlanadi va turli kontekstlarda ma'nodosh tushunchalar bilan boyitilgan holda qo'llanilishi mumkin. Bu konsept turli sohalarda keng konseptual qamrovga ega bo'lib, til birliklari va madaniy tafakkur tizimi bilan o'zaro bog'liq holda shakllanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, insonning yoshi ko'p jihatdan uning ijtimoiy mavqei va lingvomadaniy muhitdagi rolini belgilaydi. Yoshga bog'liq "Edad" konsepti til tizimida "bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh va qarilik" kabi bosqichlarni qamrab oluvchi asosiy tushunchalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu komponentlar o'rganilayotgan konseptiyaning dinamik tuzilishini shakllantirib, uning markaziy va periferik qatlamlardan iborat murakkab strukturasi aniqlash imkonini beradi. [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" №5 (120)-1 2024.p. 51]

Tadqiqot davomida "Edad" konseptini ifodalovchi birliklarning semantik-funksional xususiyatlari tahlil qilindi hamda konseptning shakl va mazmun tuzilishi rekonstruksiya qilindi. Shu asosda ispan va o'zbek tillarida ushbu konseptning semantik-funksional xususiyatlarini tahlil qilish ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Achilova Z.P. "Semantics of the lexeme EDAD as a central lexeme of the nominative field of the concept of "age" in spanish and uzbek languages". International multidisciplinary journal for research development. [Achilova Z.P №12, issue 01 (2025). p. 51]
2. Achilova Z. Ispan va o'zbek tillarida "EDAD" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ma'nolarni idrok etishning milliy o'ziga xos xususiyatlari. "Экономика и социум" №5 (120)-1 2024
3. Achilova Z. P. Tarjima qilish qiyin bo'lgan murakkab morfologik hodisalar va sintaktik konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyatlari // Journal of Innovations in Scientific and Educational Research. – 2023. – T. 6. – № 2. – С. 310-315.
4. Achilova Z. P. Og'zaki matn tarjimasining fonetik va leksik qiyinchiliklari va uni yengib o'tish imkoniyatlari // Pedagog's Jurnal. – 2022. – T. 3. – № 1. – С. 170-178.
5. Ачилова, Зулхумор Пулатовна "Синхрон таржима жараёнида мураккаб морфологик ҳодисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари." Образование наука и инновационные идеи в мире 31.2 (2023): 23-28.
6. Ачилова Зулхумор Пулатовна "Таржима қилиш қийин бўлган мураккаб морфологик ҳодисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари". Journal of innovations in scientific and educational research 6.2 (2023): 310-315.
7. Ачилова, Зулхумор Пулатовна. "Таржимашунослик назарияси мутахассислиги фанларига бағишланган замонавий дарсликлар яратишнинг аҳамияти" journal of innovations in scientific and educational research 6.2 (2023): 316-318.
8. Ачилова Зулхумор Пулатовна. "Применения метода корректирующей компенсации при переводе политических выступлений." Journal of innovations in scientific and educational research" 6.2 (2023): 319-322.
9. Ачилова Зулхумор Пулатовна. "Словообразовательные и грамматические трудности при переводе испанского текста на русский". Центрально азиатский журнал образования и инноваций. 2.6 Part 6 (2023): 220-224.
10. Ачилова, Зулхумор Пулатовна. "Оғзаки матн таржимасининг фонетик ва лексик қийинчиликлари ва уни енгиб ўтиш имкониятлари". PEDAGOGS journali 3.1 (2022): 170-178.